

Kuz



O'lkamizga go'zal, yorqin va mevalarga to'la savat bilan kuz fasli kirib keldi. U sekingina, bildirmay kelganiga qaramay, ko'p ishlarga ulgurdi: **qushlarni janubga jo'natdi, barglarni bo'yadi, tabiatni qish fasliga tayyorlab qo'ydi.**

Bugun biz pishiqchilik bayrami – Mehrjon haqida qo'shiq tinglaymiz. Unda karnay-surnayning sho'x sadolari ostida kuzda yetiladigan meva-yu sabzavotlarning mo'l hosili haqida kuylanadi.

Mehrjon

Ahmad Haydarov she'ri va musiqasi



11

1

Bu qanday bayram ekan?

Jumlayi jahon yig'ilgan.

Nog'ora, karnay-surnay,

Hamma yoq bezatilgan.

2 marta

2 marta

NAQAROT:

Mehrjon, mehrjon, (2 marta)

Pishiqchilik bayrami,

Mehrjon bayrami bu.

Mirishkor dehqonlar-u,

Bog'bonlar bayrami bu.

2 marta



- 2 Yosh-u qari shod-xurram, } 2 marta
 Rastalar qator-qator. }
 Qovun-tarvuzlar to'p-to'p, } 2 marta
 Mevalarning bari bor. }

NAQAROT

- 3 Bu barchaga hotamtoy, } 2 marta
 Oltin kuzning salomi. }
 Saxovatli, himmatli, } 2 marta
 Tabiatning in'omi. }

NAQAROT

Mehrjon bayrami bu. (3 marta)



- Qo'shiqni tinglaganingizda kuz faslini qanday tasavvur qildingiz?
- Mehrjon qanday bayram?
- Kuzda qanday meva va sabzavotlar yetiladi?



Qo'shiqni tinglang va yod oling.

